




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

SAMARQAND VILOYATI QARLUQ SHEVALARIDA O'ZLASHMA QATLAM VA BILINGVIZM MASALALARI

ISSUES OF ASSISTANTIC LAYER AND BILINGUALISM IN THE KARLUK SPEAKS OF SAMARKAND REGION

Zilola TILLABAYEVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258

Annotation. *This text analyzes the formation of the lexical layer of karluk dialects in the Samarkand region based on socio-historical and linguistic factors. The study scientifically proves that the vocabulary of regional dialects is a dynamic phenomenon, and the emergence of borrowed layers is a product of long-standing Uzbek-Tajik bilingualism. Furthermore, the adaptation characteristics of loanwords from Persian-Tajik, Arabic, and Russian languages into dialectal speech are discussed, alongside the fundamental perspectives of scholars such as Mahmudkhoja Behbudi and Karim Shoniyozov.*

Key words: *Samarkand dialects, karluk dialect, lexical layer, loanwords, bilingualism, Uzbek-Tajik linguistic relations, dialectology, linguistic interference.*

Ma'lumki, har qanday til tizimi, xususan, hududiy shevalarning lug'at tarkibi ham o'zining ichki taraqqiyot qonuniyatlari hamda tashqi lingvistik aloqalar ta'sirida shakllanadigan murakkab va dinamik hodisadir. Dialektal leksika tarkibida o'zlashma qatlamning mavjudligi tilning tabiiy rivojlanish jarayoni bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik munosabatlarning bevosita in'ikosi hisoblanadi. Zero, hech bir sheva yoki shevalar guruhi mutloq muhofazalanish holatida, boshqa lisoniy birliklardan ajralgan tarzda o'zining leksik butunligini saqlab qola olmaydi. Ushbu ilmiy haqiqatni asoslashda taniqli sharqshunos olim A.Ibrohimovning tadqiqotlari muhim metodologik ahamiyatga ega. Olim "Boburnoma" asaridagi o'zlashma qatlam tahliliga bag'ishlangan ishida har qanday tilning lug'at fondi, aslida, turli-tuman leksik unsurlarning o'zaro sintezi natijasida boyib borishini ta'kidlaydi. Xususan, A.P.Barannikovning tilning leksik tarkibi turli qatlamlar qorishmasidan iborat bo'lishi haqidagi qarashlari hamda I.U.Asfandiyorovning tillarning o'zaro ta'siri ularning leksik-semantik jihatdan boyishiga xizmat qilishi borasidagi xulosalari fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, tilshunos olim O.Azizov e'tirof etganidek, dunyoda boshqa tillardan mutloq holi bo'lgan "toza" yoki "sof" tilning mavjud emasligi tilshunoslikning fundamental qonuniyatlaridan biridir [Ibrohimov: 35]. Binobarin, xalqning jonli nutqiy jarayoni bo'lgan shevalar ham o'z taraqqiyoti davomida qo'shni yoki aloqador tillardan leksik birliklar qabul qilish orqali o'zining ifoda imkoniyatlarini kengaytirib boradi.

Xususan, biz tadqiq etayotgan hudud shevalarida ham o'zlashma birliklarning muayyan tizimga kelishi tasodifiy hodisa emas, balki uzoq yillik muloqot va ikki tillilik muhitining mahsulidir. Bu jarayon shevaning lug'at boyligini nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham qayta shakllanishga uchratib, unda yangi ma'no qirralari va uslubiy rang-baranglikning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida yagona madaniy-geografik kenglikda, o'zaro uzviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatda yashab kelganliklari tildagi o'zlashish jarayonlarining tabiiy va jadal kechishini ta'minlagan. Bu borada taniqli akademik Karim Shoniyozevning o'zbek xalqi shakllanish jarayoniga oid xulosalari alohida ilmiy qimmatga ega. Olim ta'kidlaganidek, turkiy, sug'diy va tojik guruhlarining har ikki tilda so'zlashish ko'nikmasi uzoq davom etgan tarixiy hamkorlik hamda mushtarak hududiy hayot tarzining qonuniyatli mahsulidir. Shuni alohida qayd etish joizki, ushbu ikki xalq tarixning turli murakkab bosqichlarida ham doimo ahillik va inoq yashash tamoyillariga sodiq qolganligi tillararo leksik singib ketishning ijobiy muhitda rivojlanishiga zamin yaratgan [Shoniyozev: 263].

Aynan mana shunday etnotarixiy omillar natijasida, tadqiqot obyekti bo'lgan Samarqand viloyati qarluq shevalariga xos nutqiy muhitda o'zbek-tojik aloqalari o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu hududdagi jonli so'zlashuv nutqi faqatgina sof turkiy qatlam bilan cheklanib qolmay, balki asrlar davomida o'zlashib, sheva leksikasining ajralmas qismiga aylangan fors-tojikcha, arabcha, shuningdek, keyingi davrlarda kirib kelgan ruscha-baynalmilal so'zlar bilan ham boyib borgan.

Hududiy shevalar so'z qatlamining tarkib topishi bevosita ijtimoiy-tarixiy omillar, xususan, hududiy yaqinlik va madaniy-ma'rifiy mushtaraklik bilan uzviy bog'liqdir. Milliy uyg'onish davrining yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yilda chop etilgan "Til masalasi" asarida turkiy shevalar rivojida o'zlashma unsurlarning o'rni va ularning geografik joylashuv bilan bog'liqligi masalasini ilmiy asoslab bergan edi. Mutaakkir ta'kidlaganidek, Turkiston o'lkasidagi turkiy nutqqa forsiy va arabiy so'zlarning singishuvi barcha hududlarda bir xil kechmagan, balki "mavqe'i jug'rofiyasig'a" ko'ra turlicha ko'rinish kasb etgan. Xususan, Buxoro va Samarqand kabi qadimiy madaniy markazlar shevalarida fors-tojik va arab tili qatlamlarining salmog'i yuqori ekanligi ushbu hududlardagi ko'p asrlik tabiiy ikki tillilik muhitining qonuniyatli mahsulidir.

Leksik o'zlashish jarayonlari, asosan, ikki asosiy yo'nalish bolgan bevosita muloqot va yozma manbalar orqali amalga oshadi. Sheva tizimida og'zaki muloqot orqali so'z o'zlashtirish birlamchi hisoblanib, u, asosan, kundalik ehtiyojlarni ifodalashga xizmat qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida rus tili birliklarining o'zbek shevalariga, xususan, Samarqand nutqiy muhitiga kirib kelishi, asosan, jonli so'zlashuv yo'li bilan kechganligi sababli ushbu so'zlar shevaning talaffuz qoidalariga moslashgan holda o'zlashgan. Buni o'sha davr imlosida aks etgan *iskalod* (склад), *inostran* (инострәнец), *aborot* (обором), *pirakuror* (прокурор) kabi shakllar misolida ham ko'rish mumkin [3:101]. Bu kabi birliklar

sheva nutqida tovush o'zgarishlariga uchrab, mahalliy nutqning ichki qonuniyatlariga to'liq singib ketganligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, Samarqand shahrida o'zbek va tojik tillarining shevalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shu sababdan ham V.S.Rastorguyeva tadqiqot ishida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "... Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi viloyatlarida yashovchi tojiklar tilida o'zbek tili bilan turli xil sathlarida o'xshashlik, tipologik yaqinlik vujudga keldi" [Rastorguyeva:63].

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan kuzatishlar shuni tasdiqladiki, Samarqand shahri aholisining nutqida ko'p tillilik, Urgut, Toyloq hamda Oqdaryo tumanlari vakillari nutqida esa ikki tillilik hodisalarining ustuvorligi muayyan ijtimoiy-madaniy omillar bilan izohlanadi. Mazkur hududlardagi lisoniy vaziyat bevosita dialektlararo va tillararo uzviy aloqalarning tarixiy davomiyligi hamda o'zaro yaxlitlashuv jarayonlari natijasidir. Binobarin, hudud aholisining leksik qiyofasi turlicha tillarga mansub elementlarning bir muloqot tizimida o'zaro chambarchas bog'lanishi va bir-birini boyitishi asosida shakllangan.

Zero, ushbu hudud shevalaridagi o'zlashma qatlam nafaqat lug'at tarkibini boyitishga, balki so'zlarning ma'no qurilishi murakkablashuviga va nutqiy ifodaning ta'sirchanlik imkoniyatlari kengayishiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov A. "Boburnoma"dagi hindcha so'zlar. – Toshkent, 2002. – B. 35.
2. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 263.
3. Ҳозирги замон ўзбек тили (Лексикология. Фонетика. Графика ва орфография. Морфология). – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 101.
4. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 154.
5. Расторгуева В.С. Опыт сравнительного изучения, таджикских говоров. – М., 1964.